



Tadqiqot.uz

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**SOHA LINGVISTIKASI: TILSHUNOSLIK  
VA TIBBIYOT INTEGRATSIYASINING  
MUAMMOLARI, YECHIMLARI HAMDA  
ISTIQBOLLARI**

**10-NOYABR  
2021**

**BUXORO, UZBEKISTAN**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**SOHA LINGVISTIKASI:**  
**TILSHUNOSLIK VA TIBBIYOT**  
**INTEGRATSIYASINING**  
**MUAMMOLARI, YECHIMLARI**  
**HAMDA ISTIQBOLLARI**  
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**materiallari**

*Buxoro, 10-noyabr, 2021-yil*

© Tadqiqot.uz

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

**BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**LINGUISTICS OF DIFFERENT  
FIELDS:  
PROBLEMS, SOLUTIONS AND  
PROSPECTS OF LINGUISTICS  
AND MEDICAL INTEGRATION**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL  
CONFERENCE**

**Bukhara, November 10, 2021**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО  
СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН**

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**ОТРАСЛЕВАЯ ЛИНГВИСТИКА:  
ЗАДАЧИ, РЕШЕНИЯ И  
ПЕРСПЕКТИВЫ  
ЛИНГВИСТИКИ И  
МЕДИЦИНСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ  
КОНФЕРЕНЦИЯ**

**Бухара, 10 ноября 2021 г.**

**© Tadqiqot.uz**

***“Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.–Buxoro: Tadqiqot.uz, 2021.***

Buxoro davlat universiteti O`zbekiston Respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi, O`zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi, O`zbekiston Respublikasi sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Respublikasi tadqiqot.uz. markazi, Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti bilan hamkorlikda “Soha lingvistikasi: tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasining muammolari, yechimlari hamda istiqbollari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o`tkazdi.

O`zbek, rus, ingliz tillaridagi mazkur konferensiya materiallarida tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g`oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari; o`zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat; tibbiyot ta`limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi; tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi; amaliy filologiyani rivojlantirish kabi mavzular doirasida mulohaza yuritilgan.

**Mas`ul muharrir**

**filologiya fanlari doktori,  
professor Abuzalova M.Q.**

**Taqrizchilar**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent Nazarova S.A.**

**filologiya fanlari nomzodi,  
dotsent G`aybullayeva N.I.**

**tibbiyot fanlari doktori (PhD),  
dotsent Ixtiyarova G.A.**

**To`plovchi va nashrga  
tayyorlovchi**

**pedagogika fanlari nomzodi,  
professor Yuldasheva D.N.**

*Mazkur to`plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma`lumotlar hamda bildirilgan fikr hamda mulohazalarga mualliflarning o`zlari mas`uldirlar.*

**© Buxoro, Tadqiqot.uz, 2021**

- Human behavior, self - behavior, general - behavior;
- Movement capacity (efficiency, agility, and laziness) to reflect.

2. Also, we can say that the zoonyms enrich, evaluate humankind's positive and negative situations. They help to understand the situation and to solve it in its right way.

3. In fact, each nation's cultural wealth based on zoonyms national spirit and mentality which describes its deep and true meaning. Especially animal's name can clarify social and psychological aspects of the nation's culture; complex linguistic integrity and zoonyms display information about the culture of all nation.

4. On the one hand, Uzbek and English proverbs and sayings defines the difference between cultural and national features, on the other hand, the presence of proverbs in both languages in the same diagram of the relationship of all nationalities and ethnic groups has been historically proved once again.

5. In summary, we can say that animal names and their formation are an expression of everyday life in every nation. The figurative paints, which are understood in the example of zoonyms, are also influenced by the cultural life of the people.

#### **References:**

1. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. - Тошкент, 1990.
2. Tosheva D. National-cultural outlook onto the zoonym component aphorisms. UCT Journal of Social Sciences and Humanities Research 4 (03), 22-25
3. Jurayeva B.M., Tosheva D.A., Nurova Y.U. Mental features of proverbs. International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24 (Issue 9), 2275-2281
4. Xolmanova Z., Tosheva D. Zoonimkomponentlimaqollarningizohlilug'ati (o'zbek, inglizvarustilimateriallariasosida). Toshkent, 2016.
5. Xolmanova Z., Abdurahmanova M., Tosheva D. Comparative analyse of cases in the turkic languages. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 10 (8), 382-401

#### **Bayon –o'quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi**

**To'yeva Zulfiya Nozimovna \***

**10.5281/zenodo.5685183**

**Annotatsiya.** Bayon o'rta maktab ta'lim-tarbiya tizimida nutq o'stirish vositasi sifatida g'oyat muhim o'rin tutadi. U yozma ishning asosiy turlaridan biri bo'lib, asar yoki undan olingan parcha mazmunini o'quvchi tomonidan "o'z so'zi", "o'ziga xos uslubi" asosida izchil, savodli qayta bayon etishni taqozo etadi. Ta'lim tizimida o'quvchilarni bayon yoza olishga o'rgatish ularning lug'at boyligini oshiradi, faollashtiradi, ularda so'z va iboralardan ijodiy foydalanish ko'nikmasini rivojlantiradi.

**Tayanch so'zlar:** *yozma nutq, bayon, ta'limiy bayon, nazorat bayon, ijodiy tafakkur*

Bayon maktab ta'lim-tarbiya tizimida, asosan, ona tili mashg'ulotlarida yozma nutq o'stirishning g'oyat muhim vositasi hisoblanadi. Agar maktabda ona tili ta'limining umumiy maqsadi o'quvchini ravon o'qishga, o'qiganlarini teran anglashga va xatosiz yoza olishga o'rgatish ekanligini inobatga olsak,

---

\* BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasi mustaqil izlanuvchi tadqiqotchisi

o'quvchining bu borada egallagan bilimi, ko'nikmayu malakasi qaydarajadligini sinash uchun bayon yozdirish eng samarali yo'l ekanligi ma'lum bo'ladi.

Ona tili ta'limi fundamentalizm va akademizm yo'nalishida bilimdon ijrochi shaxsni tarbiyalash tizimidan pragmatik yo'nalishda tadbirkor va ijodiy tafakkur sohibi bo'lgan shaxsni tarbiyalash yo'liga o'tdi. Ona tili ta'limining istiqloq sharofati bilan yangilangan maqsadi, mazmuni har bir o'quv soatida o'quvchilarga qanday bilimlarni va qanaqa malaka-yu ko'nikmalarni singdirishni talab qilmoqda? Didaktika tarixidan ma'lumki, bilim, ko'nikma, malaka hamda ijodkorlik har doim bir-birini taqozo qiladigan hodisalardir [6].

Maktab ona tili ta'limining xususiy maqsadi zamirida jamiyatga ijodiy tafakkurli, tafakkur mahsulini og'zaki va yozma tarzda tinglovchiga ravon, sodda va aniq yetkazib bera oladigan shaxsni yetishtirib berishdek mas'uliyatli davlat buyurtmasi turibdi. Zero, bugun keng amaliyotda bo'lgan ona tili ta'limi mazmuni sirasida o'quvchilarga taqdim etilayotgan bilimlar ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka unday olishi lozim. "Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylik"[2] ekanligini unutmasligimiz zarur. Xo'sh, ona tili mashg'ulotlarida bayondan foydalanish shu xususiy maqsadning ro'yobi uchun xizmat qila oladimi?

Bu savolga hech ikkilanmay "Albatta" deb javob bera olamiz. Mutaxassislar o'rinli ta'kidlaganlaridek, o'quvchining egallagan bilimi, ko'nikma-yu malakasi uni qaydarajada ijodkorlikka, bunyodkorlikka unday olishini ko'rsatuvchi ta'limiy me'yorlardan biri **bayon** yozdirishdir.

Kichik hajmdagi didaktik xarakterli asar yoki muayyan asardan olingan parcha mazmunini o'quvchi tomonidan "o'z so'zi", "o'ziga xos uslubi" asosida izchil, savodli qayta bayon etishni taqozo etuvchi bayonning ham bir necha turlari mavjud. Bu turlar hamisha o'quvchining bayon yozishga bo'lgan ehtiyoji hamda o'qituvchining o'zi o'qitayotgan o'quv predmeti ta'limi uchun davlat tomonidan ijtimoiy buyurtma sifatida belgilab qo'yilgan malaka talablarini bajarish zaruratidan kelib chiqadi. Jumladan,

Bayon o'qituvchining nazorati nuqtayi nazaridan ikki turga bo'linadi: **ta'limiy bayon** hamda **tekshiruv bayon**.

*Ta'limiy bayonni* og'zaki shaklda ham, yozma shaklda ham o'tkazish mumkin. Ta'limiy bayon dars mashg'ulotining ma'lum qismida o'tkazilishi ham, ba'zan unga bir dars soati to'liq ajratilishi ham mumkin. Ta'limiy bayonni o'quvchi, odatda, sinf daftariga yozadi va o'qib berish asosida baho oladi. *Tekshiruv bayon* esa (bayon matni o'qituvchi tomonidan o'qib berilgach, mazmun o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilib og'zaki so'zlab berilsa-da) yozma shaklda o'tkaziladi.

Tabiiyki, bayon matnini tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va bilim saviyalari hisobga olinadi, ayniqsa, matnning tarbiyaviy jihatiga, davr talablariga qaydarajada mosligiga alohida e'tibor beriladi.

Ta'limiy bayon o'tkazishda ham, tekshiruv bayon yozdirishda ham quyidagi tartibga rioya qilinadi:

a) bayon matni o'quvchining yoshiga, ruhiyatiga mos, bolaga ma'naviy, ma'rifiy ozuqa bera oladigan, tushunilishi, o'quvchi tomonidan "hazm qilinishi" qulay tarzda o'qituvchi tomonidan tanlab olinadi;

b) bayon matni, odatda, o'qituvchi tomonidan 2 marta o'qib beriladi;

d) bayon matnida o'quvchi uchun tushunilishi yoki imlosi qiyin bo'lgan so'zlar (2-3tagacha) doskada yozib ko'rsatiladi;

e) bayon mazmuni o'quvchilar tomonidan qaydarajada anglab olinganligi 2-3 o'quvchining (bunda, albatta, a'lochi, o'rta va tengdoshlariga nisbatan pastroq o'qiydigan o'quvchilar tanlab olinishi muhim) og'zaki bayoni orqali tekshiriladi, og'zaki bayonda o'quvchi tomonidan chalkashtirilayotgan yoki e'tiborsiz qoldirilgan jihatlarga e'tibor qaratiladi;

f) o'quvchilar tomonidan bayonning (quyi sinflarda sodda, yuqori sinflarda murakkab) rejasi tuziladi;

g) o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning har biri bayonni mustaqil yozishi nazorat qilinadi va h.

Tekshiruv bayon o'tkazilish maqsadiga ko'ra bir necha turlarga bo'linadi: 1) matn mazmunini aynan aks ettiruvchi bayon; 2) matn mazmuniga ijodiy yondashilgan bayon; 3) bo'laklangan matnni mazmunan jamlovchi bayon; 4) qo'shimcha topshiriqli bayon; 5) saylanma bayon; 6) ijodiy bayon; 7) ixcham bayon; 8) matn mazmuni kengaytirilgan bayon; 9) matn mazmuni qisqartirilgan bayon; 10) ramziy-ijodiy bayon.

Matn mazmunini aynan aks ettiruvchi bayon yozishda o'quvchidan diqqatni bir joyga jamlay olish, eshitganlarini xotirada saqlab qolishga e'tibor qaratish, bayon matnidagi so'z va iboralar mazmunini to'g'ri angelay olish, matn muallifi qo'llagan ifoda shakllaridan foydalanish, matn mazmunidan chetga chiqmaslik talab qilinadi. O'quvchi yozma ishida bayon matnida berilgan asliyatni imkon qadar o'zgarishsiz qog'ozga tushirishga harakat qilishi lozimki, bu o'quvchining xotira tiplarini kengaytiradi, diqqatini jamlay olishga o'rgatadi va, albatta, yozma savodxonligini oshiradi.

Matn mazmuniga ijodiy yondashilgan bayon yozishda, imkon qadar, o'quvchiga kundalik turmushda tanish bo'lgan voqea-hodisa, tushuncha yoki belgi tasviriga yaqinroq matn tanlanadi. Bunda o'quvchi bayon matni mazmunining tub mohiyatini angelay olishi, shu mohiyatga mos o'zaro yaqin hodisalarni fikran jamlay bilishi va eshitgan matniga yaqinlashtirib bayon yozishi kerak bo'ladi. Buning uchun badiiy til xususiyati bilan ajralib turadigan asarlar tavsiya etiladi. Muayyan matn yuzasidan bayon yozishdan oldin o'quvchilar muallifning har bir fikri, iborasi hamda uslubini aniq tushunib olishi va uni o'z bayonida qo'llashi zarur.

Matn mazmuniga ijodiy yondashilgan bayonda matn muallif tilidan bayon etilgan bo'lsa, o'quvchi uni III shaxs tilida ifodalashi yoki, aksincha, III shaxsda ifodalangan mazmunni I shaxs/sonda berishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tabiiyki, bu o'quvchining til imkoniyatlardan foydalana olish uquviga bog'liq. Bayonning ushbu turi o'quvchi tafakkurida assotsiativlikni tartibga soladi, so'z zaxirasini boyitadi, asosiysi, o'quvchi nutqida narratologik xususiyatni oshiradi.

Buning uchun tanlangan matn hajmi uncha katta bo'lmasligi muhim.

Bo'laklangan matnni mazmunan jamlovchi bayonni o'tkazish uchun o'qituvchi o'quvchilarga mazmuni notanish bo'lgan o'rtacha 4-5 xatboshidan iborat bog'lanishli matnni tanlaydi va matnning har bir xatboshisini alohida varaqqa yozadi. Matn bo'laklari soniga qarab sinf o'quvchilari kichik guruhlarga



bo‘linadi va har bir guruhga matnning bir parchasi tushirilgan varaq beriladi. Shu tariqa matn bo‘laklari kichik guruh sardori yoki guruh faoli tomonidan 2 marta o‘qib beriladi. Bunda o‘quvchilar bo‘laklangan matnni mazmunan jamlab yaxlit holga keltirib olishlari va uni yozma bayon etishlari kerak bo‘ladi.

O‘quvchilarga bo‘laklangan matnni mazmunan jamlovchi bayon yozdirish ularda til sezgirligini tarbiyalaydi.

Qo‘shimcha topshiriqli bayon, asosan, o‘quvchilarning ona tili darslarida o‘zlashtirganlarini sinov tariqasida o‘tkaziladi. Qo‘shimcha topshiriqli bayonda matn mazmunini to‘g‘ri anglay olish, uni belgilangan me‘yorda yoritib berish kabi talablardan tashqari, masalan, o‘quvchilarning muayyan mavzu yuzasidan olgan bilimlar qaydarajada ko‘nikma va malakalarga aylanganligi tekshiriladi. Masalan, orfografik yoki punktuatsion qoidalar o‘rganilgach, qo‘shimcha topshiriqli bayon o‘tkazilishi zarur. Yoki so‘zlarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari o‘zlashtirilgach, matndagi bir necha gapni tarkiban ma‘nodoshlari bilan almashtirish topshirig‘i berilishi ham mumkin. Qo‘shimcha topshiriqli sifatida matnni mazmunan davom ettirish hamda birinchi gap tarkibidagi so‘zlarni ma‘nodoshlari bilan almashtirib alohida yozish topshirig‘i berilishi besamar bo‘lmaydi.

Saylanma bayonda matnning hammasi to‘liq yozilmaydi, balki o‘quvchilar bir necha qismli matnning xohlagan bir qismi yuzasi-dan bayon yozadilar. Bunda o‘quvchilarga erkinlik beriladi, ular o‘zlariga yoqqan, o‘zlarini qiziqtirgan biror qismni saylab oladilar. Mazkur holat o‘quvchini umumiylikdan xususiylikni ajrata olishga o‘rgatadi. Saylanma bayon o‘tkazishning muhimligi o‘quvchilar hajman salmoqligina matnni o‘zlashtiradilar; matn haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘ladilar; matn qismlar orasidagi bog‘lanishni anglaydilar va o‘zlari ongli, ijodiy ravishda tanlagan qism mazmunini yoritishga harakat qiladilar. Asosiysi, bolada nutq~tafakkur~nutq assotsiatsiyasi rivojlanadi, matn bo‘lagini mustaqil tarzda ixtiyoriy tanlash huquqi ularga motivatsiya beradi. (Saylanma bayon, odatda, reja tuzishni talab etmaydi.)

Ijodiy bayon o‘tkazish tartibi, odatda, o‘quvchidan yo matn mazmuniga o‘z munosabatini bildirishni yoki boshlanishi berilgan matnni mazmunga mos ravishda davom ettirishni talab etadi. Bayon turlari ichida ijodiy bayon ona tili ta‘limining bosh maqsadi bilan chambarchas bog‘liq [3;8], desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘qituvchi sinf o‘quvchilarining saviyasi, bilim darajasi, iqtidorini inobatga olib, ijodiy bayon shakllarini tanlashga novigatsion tarzda yondashishi mumkin. Masalan, voqeaband she‘rlar mazmunini hikoya shaklida yozish, dialoglarni umumlashtirib yozish, matndagi so‘zlovchi shaxsini o‘zgartirib yozish shular jumlasidandir. Ijodiy bayonni ham nazorat, ham ta‘limiy yozma ish sifatida o‘tkazish mumkin.

Ta‘limiy bayon o‘tkazish bilan bog‘liq yuqorida sanab o‘tilgan ishlar o‘qituvchidan ham, o‘quvchidan ham ziyraklikni, mohiyatga qunt bilan yondashishni talab etadi.

Ixcham bayon. Ixcham hajmli matn yuzasidan o‘tkaziladigan yozma ishning turiga ixcham bayon deyiladi. Bunday bayon V-IX sinflarning har birida darsning 8-20 daqiqasida qiziqarli kichik mashg‘ulot sifatida o‘tkaziladi va bu mashg‘ulot o‘quvchini qiynamaydi, u mazmuni tez o‘zlashtiradi. Bu o‘ziga xos yozma aqliy

mashq ko‘rinishida bo‘lib, ixcham bayonga reja tuzish shart bo‘lmaydi. Odatda, kichik hajmli bayon matnining mazmuni, ahamiyati o‘quvchilar diqqatini tezda o‘ziga jalb etadi. O‘qituvchi mazkur bayon turini bir kundayoq tekshirish, baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ko‘pchilik shubhasiz, ijobiy baho oladi, shuningdek, bu o‘quvchilarning yozma nutqini takomillashtirib borishga zamin hozirlaydi.

Ixcham bayon matnini o‘quvchiga bir marta o‘qib berilishining o‘zi kifoya. Bu ularning eshitish qobiliyatini oshirishga, e‘tiborlilikka, xotirasini o‘stirishga ham ko‘maklashadi.

*Matn mazmuni kengaytirilgan bayonda* o‘quvchilar hukmiga kichik hajmli matn havola etiladi va shu matn mazmunini kengaytirib yozish topshirig‘i beriladi. Matn mazmuni kengaytirilgan bayon ham ijodiy xarakterdagi bayonturlaridan biri bo‘lib, uni yozish uchun hikmatli so‘zlarga, xalq maqollariga ham murojaat etish o‘rinli.

*Matn hajmini qisqartirib bayon yozishning* ahamiyati shundaki, biror ertak yoki hikoyaning mazmunini umumlashtirib, asosiy g‘oyani lo‘nda ifodalash uchun o‘quvchini faol va mustaqil fikrlashga undaydi, keng hajmli matn yuzasi–dan konspekt tuzish malakasini shakllantiradi.

Qisqartirib yozish malakasini hosil qilish uchun matn yuzasi–dan savol shaklida reja tuza bilish ham muhim o‘rin tutadi. Keyin ular savolga qisqa javob yozadilar. Matn hajmini qisqartirib bayon yozish uchun quyidagi talablarga to‘liq rioya etilishi zarur:

- matn hajmini qisqartirish uning asosiy mazmuniga putur yetkazmasligi;
- matn mag‘zidagi asosiy mazmun va matndagi ikkinchi darajali voqea-hodisalar aniq ajratilishi;
- matndagi ikkinchi darajali voqea-hodisalar qisqartirilib, g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘rinlar qoldirilishi;
- muallifning asosiy fikrini saqlagan holda mazmuni nihoyatda qisqa, ixcham yoza olish;
- xatosiz, chiroyli va toza yozish.

*Qisqartirilgan bayonning* murakkablik tomoni shundaki, u o‘quvchidan til sezgirligini, so‘z va iboralardan mohirona foydalana olishni, asosiysi, matnda muallif nima demoqchiligini aniq anglay olishni talab etadi. O‘quvchining bu natijaga erisha olishi fan o‘qituvchisining o‘quvchi bilan faqat dars jarayonida emas, maktabda o‘qitiladigan boshqa o‘quv predmetlari ta‘limi orqali ham, sinfdan tashqari ishlarda ham uzluksiz ishlashini taqozo etadi.

Matn hajmini qisqartirib bayon yozdirishda o‘quvchining yosh xususiyati, ruhiyati, shuningdek, mentalitet, milliy mafkuraga mos ravishda tanlangan matn mazmunini umumlashtirib asosiy g‘oyani lo‘nda ifodalash o‘quvchini faollikka, mustaqil fikrlashga undaydi. Shuningdek, ular o‘quvchilarda saylanma bayonlardagi kabi umumiylikdan xususiyligni ajrata olish malakasini shakllantiradi.

Fikrimizcha, ona tili dars mashg‘ulotlarida foydalaniladigan bayon turlari hamma vaqt ona tili ta‘limining bosh maqsadi ruyobiga bog‘lanishi, umumiy dars jarayonidan “ko‘richak” shaklida ajralib turmasligi shart.

### **Adabiyotlar:**

1. Умумий ўрта таълим мактабларида она тили фанини ўқитишни ривожлантириш концепцияси/Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг 2020 йил 25 февралдаги 52-сон буйруғи асосида тасдиқланган.
2. Баркамол авлод орзуси. – Т.: Шарқ, 1999.
3. Таълим жараёнида ижодий тафаккурни ривожлантириш масалалари. ЎТДА 6-йиғини тезислари (Масъул муҳаррир: М. Абдураимова). – Т.: РТМ, 2001.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000. – Б.379.
5. Зуннунов. А., Турдиев Б. Баёнлар тўплами. 5-9-синфлар учун. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
6. Yuldasheva D.N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (OO‘MTV tasdiqlagan darslik). – Buxoro: Durdona, 2021. <http://library.ziyounet.uz/ru/book/119112>
7. Yuldasheva D.N. Silence – is a nonverbal unit of speech communication// Impact Factor (SJIF 2020 = 6.156) “American Journal of Research”, 2020, 11-12 issue of the Journal.– Pag.87-95.
8. Юлдашева Д.Н. Мактабда она тили таълими муаммолари// ВухДУ ilmiy axboroti (ISSN 2181-6875).–Buxoro, 2020, № 3 (75).– 268-277-б.
9. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi Ўзбек тилининг изоҳли луғати “Б” ҳарфи

### **The role of teaching speaking through technology**

**Salomova Malika Zohirovna\***

**10.5281/zenodo.5685193**

**Annotation.** In the article, the main goal is to identify the possibilities of information and communication technologies in increasing the effectiveness of training, developing the creative abilities of students in English lessons, realizing the creative potential of each participant in educational activities. In accordance with this goal, the following tasks have been identified as considering the relevance of the use of Information and Communication Technologies (ICT) in English lessons and the use of ICT in English lessons as a means of increasing the effectiveness of learning and the development of creativity.

**Key words:** *information and communication technologies, modern technologies, educational activities, innovative forms of education, increasing efficiency, the formation of independence*

It is known that new tendency of teaching English as a foreign language mainly relies on integrating technological tools in teaching language skills. As the conventional teaching method seems to be outdated, the modern technologies can be used as a supplement to the classroom teaching method to have a lively atmosphere in the classroom. It is the need of the hour to integrate modern technologies to upgrade the level of English teaching. The modern technologies relax the mind of the students to get into the subject with full involvement rather than a difficult task to do. New technologies in language learning by multiple intelligence and mixed abilities replace with old methods of teaching.

---

\* A senior teacher of English, Department of “Foreign Languages” Bukhara Engineering Technological Institute [salomova12@mail.ru](mailto:salomova12@mail.ru)

## МУНДАРИЖА

<b>Rasmiy ochilish. Tabriklar</b>		
<i>Hamidov O.H.</i>	<i>Rasmiy ochilish</i>	<b>6</b>
<i>Inoyatov A.Sh.</i>	<i>Tibbiyot va til mushtarakligi</i>	<b>8</b>
<i>Daminov M.I.</i>	<i>Til va madaniyat</i>	<b>9</b>
<i>Qahhorov O.S.</i>	<i>Davlat tili - millatning tirik nafasi</i>	<b>10</b>
<i>Xuseynova A.A.</i>	<i>Soha lingvistikasini rivojlantirish – davr talabi</i>	<b>11</b>
<i>Aslonova E.S.</i>	<i>Государственный язык – неотъемлемая часть духовной национальной культуры государства</i>	<b>12</b>
<b>Yalpi majlis ma’ruzalari</b>		
<i>Mengliyev B.R.</i>	<i>Tilshunoslik samara bersin.</i>	<b>15</b>
<i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Lingvistika va tibbiyot hamkorligi ijtimoiy zarurat sifatida</i>	<b>17</b>
<i>Чудакова В.П.</i>	<i>Психология пациента и этика врача</i>	<b>22</b>
<i>Ixtiyarova G.A.</i>	<i>Ginekologik kasallikni ifodalovchi tibbiy terminlar talqini</i>	<b>25</b>
<i>Мўратбек В.Қ.</i>	<i>Professor Q.Jўbanov уеңбектериндеги сөзтаңым неғиздегі (Q.Jўbanov сөзтаңымындағ ы лексикология мәселелери)</i>	<b>27</b>
<i>Adilova S.A.</i>	<i>Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi (AQSHdagi ayrim universitetlar misolida)</i>	<b>36</b>
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>O'zbek tilini tadqiq etishda yangicha yondashuvlar</i>	<b>40</b>
<b>1-sho'ba. Tilshunoslikda til, shaxs, jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari va innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish istiqbollari</b>		
<i>Ahmedov B.Y.</i>	<i>Rus va o'zbek tillarida so'zlarning o'zaro tobe bog'lanishi: boshqaruv kategoriyasi</i>	<b>42</b>
<i>Akhmedov A.R. Po'latova S.M.</i>	<i>O'zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish</i>	<b>46</b>
<i>Adizova N.I.</i>	<i>Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida)</i>	<b>50</b>
<i>Elova D.Q.</i>	<i>O'zbek tili milliy korpusi uchun so'zlashuv uslubiga xos so'zlarni teglash masalasig oid</i>	<b>55</b>
<i>Fayazova D.S.</i>	<i>Methodological approach in teaching process</i>	<b>61</b>
<i>Fayazova D.S. Shirinboyeva B.M.</i>	<i>Empowering languageskills through modern methods</i>	<b>65</b>
<i>Jo'rayeva D.R. Qo'shayeva N.E.</i>	<i>O'quvchilar va aholi imloviy savodxonligini rivojlantirishning dolzarb masalalari</i>	<b>68</b>
<i>Kurbonov A.M.</i>	<i>Tasks of effective use of the uzbek language</i>	<b>71</b>
<i>Mengliyev B.R. Hamroyeva Sh.M. Elova D.Q.</i>	<i>Qirg'iz va yoqut tili avtomatik morfoligik tahlil vositalari tajribasidan</i>	<b>75</b>
<i>Muxtorov E.M.</i>	<i>Vrach kasbiy mahorati tuzilmasida kommunikativ kompetentlikning o'rni</i>	<b>79</b>
<i>Мўратбек Б.Қ. Саламат Э.С.</i>	<i>Этнолингвистика – этностық болмысты ұлттық тіл арқылы таңым білу(Аймақтық лексика неғизінде). Ethnolinguistics- knowledge of ethnic identity through the national language (based on regional vocabulary).</i>	<b>84</b>
<i>Orifjonova F. Orifjonova M.</i>	<i>Critically discussing student teachers' ideas</i>	<b>88</b>

<i>Ortiqova G. H.</i>	<i>Harakat tarzi shakllari va nutq</i>	<b>93</b>
<i>Saduaqas N.A.</i> <i>Ibragimov T.A.</i>	<i>Qazaq tilindegi dybyys saykestigi turaly</i>	<b>97</b>
<i>Sayfullayeva R.R.</i> <i>Abuzalova M.Q.</i>	<i>Til – millat ma'naviyati va madaniyati takomilining bosh masalasi</i>	<b>102</b>
<i>Tosheva D.A.</i>	<i>The use of examples of folklore in the description of the person</i>	<b>104</b>
<i>To'yeva Z.N.</i>	<i>Bayon –o'quvchining yozma nutqini tartibga solish vositasi</i>	<b>111</b>
<i>Salomova M.Z.</i>	<i>The role of teaching speaking through technology</i>	<b>116</b>
<i>Shoimqulova M.Sh.</i>	<i>The integration of technology into language teaching</i>	<b>121</b>
<i>Sharipova F. N.</i>	<i>Integrating technology in teaching listening skills</i>	<b>125</b>
<b>2-sho'ba. O'zbek tili tibbiyot leksikografiyasi va terminologiyasini rivojlantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida</b>		
<i>Nazarova S. A.</i>	<i>So'z birikmasi – tibbiy atamalar “bunyodkori”</i>	<b>131</b>
<i>Nazarova D.G.</i>	<i>Lexicographic problems of the uzbek language</i>	<b>136</b>
<i>Rajabov D.Z.</i>	<i>Tibbiy birliklarning elektron lug'atlari xususida</i>	<b>139</b>
<i>Sobirova D.R.</i>	<i>Qisqalik – samarali tibbiy reklama yaratishning muhim omili</i>	<b>141</b>
<i>Toirov G.I.</i>	<i>Shifokor nutqining lingvistik xususiyatlari</i>	<b>146</b>
<i>To'rayeva Sh.</i>	<i>So'z birikmasi tibbiy terminlar tizimida</i>	<b>150</b>
<i>Xamidova G.Y.</i>	<i>Особенности преподавания медицинской терминологии на уроках русского языка как иностранного</i>	<b>153</b>
<i>Xojiyeva M. Y.</i>	<i>Shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining tibbiyotda qo'llanilishi</i>	<b>157</b>
<i>Yokubova Sh. Y.</i>	<i>Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi</i>	<b>161</b>
<i>Yuldasheva D.N.</i> <i>Chullieva G.T.</i>	<i>Тшина и тон звука как медицинский эфемизм</i>	<b>164</b>
<i>Navro'zova M.G'.</i>	<i>Tibbiy birliklar tadqiqi</i>	<b>172</b>
<b>3-sho'ba. Tibbiyot ta'limida lingvokulturologiya va psixolingvistikaning ahamiyati hamda dolzarbligi</b>		
<i>Ahmadova U.Sh.</i> <i>Bozorova G.Z.</i> <i>Mirjonov N.N.</i>	<i>Tibbiyot sohasida perifrazarlar</i>	<b>174</b>
<i>Абдуллина А.Б.</i>	<i>Мұқағали Мақатаев әңгімелеріндегі психологизм</i> <i>Psychologism in the stories of mukagali Makatayev</i>	<b>179</b>
<i>Adizova Nigora</i> <i>Adizova Nodira</i>	<i>Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari</i>	<b>182</b>
<i>Gafurova N.T.</i> <i>Hikmatov N.I.</i>	<i>Значение языка в развитии высшего образования</i>	<b>185</b>
<i>G'aybullayeva N.I.</i>	<i>Tibbiy lingvistik birliklar platformasining amaliy ahamiyati</i>	<b>190</b>
<i>Hayitov Sh.A.</i>	<i>Alisher Navoiy tib ilmi va tabiqlar haqida</i>	<b>195</b>
<i>Haydarova N.A.</i>	<i>The importance of metaphors usage in medical discourse</i>	<b>200</b>
<i>Jumayeva M.</i>	<i>O'zbek xalq maqollarida tibbiy birliklarning qo'llanilishi</i>	<b>204</b>
<i>Kobilova F.T.</i>	<i>The problems of research on methods of foreign filology teaching with innovative approach</i>	<b>207</b>
<i>Raximov M. M.</i>	<i>Linguotherapy as the method of treatment</i>	<b>211</b>
<i>Xalikova M.X.</i> <i>Teshayeva M.Sh.</i>	<i>Shoshiyning tibbiyot ilmiga bag'ishlangan “qonuni bositiy” asarida mavjud ayrim tibbiy atamalarning lingvistik tahlili</i>	<b>214</b>
<i>Niyozova M.F.</i>	<i>Davriy nashrlarda tibbiyotga oid tasviriy vositalarning</i>	<b>218</b>

	<i>qo'llanilishi</i>	
<b>4-sho'ba. Tibbiy birliklarning lingvopoetik tadqiqi</b>		
<i>Yusupova D.Y.</i>	<i>Tilshunoslikda evfemizm hodisasi talqini (H.Xudoyberdiyeva she'rlari asosida)</i>	<b>222</b>
<i>Қалиев Е.М.</i>	<i>«Ант» драмалық дастанының тарихи және фольклорлық негізі Historical and folklore basis of the dramatic saga "The Oath"</i>	<b>228</b>
<i>Yuldasheva M.M.</i>	<i>Tibbiy pedagogik yo'nalish talabalarida milliy an'analar asosida bag'rikenglikni rivojlantirish</i>	<b>232</b>
<b>5-sho'ba. Amaliy filologiyani rivojlantirish - davr talabi</b>		
<i>Ashurbayeva R.Q.</i>	<i>Yosh avlodda tibbiy madaniyatni rivojlantirishda ona tili fanining ahamiyati</i>	<b>237</b>
<i>Istamova S. I.</i>	<i>Taqlid so'zlarning tibbiyotda qo'llanilishi</i>	<b>241</b>
<i>Qobilova A.B.</i>	<i>O'zbek va ingliz tili tibbiy perifrazalarining kognitiv-morfologik xususiyatlari</i>	<b>245</b>
<i>Toshtemirova S.</i>	<i>Tibbiyot lingvistikasi: vujudga kelishi, dolzarbligi, maqsad va vazifalari</i>	<b>248</b>